UO‘K 821.512.133.09-1

XX ASRNING 20-YILLARI O‘ZBEK NASRIDA ZIYOLI OBRAZI

B.Yu. Mo‘minov

Maqolada XX asr 20-yillari o‘zbek nasridagi ziyoli obrazi o‘rganilgan. Asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda mafkuraviy kurashlarning badiiy adabiyotga, xususan, ziyoli obrazi talqinlariga ta’siri masalasi ko‘rib chiqilgan. Muammoni tadqiq etishda Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, M.Shermuhammedov, G‘ayratiy, Sh.Sulaymon, F.Rahmon asarlari tahlilga tortilgan. Ziyoli obrazi talqinining ijodkor dunyoqarashi, ijtimoiy qarashlari bilan bog‘liq jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-siyosiy kurashlar, adabiyot va mafkura, sho‘ro adabiyoti, ijtimoiy tafakkur, ziyoli obrazi.*

В статье изучен образ интеллигента в узбекской прозе 20-х годов XX века. Рассмотрен вопрос влияния общественно-политической ситуации и идеологической борьбы начала века на художественную литературу, в частности, на трактовки образа интеллигента. При исследовании проблемы подвергнуты анализу труды Абдуллы Кадыри, Фитрата, Чулпона, М.Шермухаммедова, Гайрати, Ш.Сулеймана, Ф.Рахмона. Раскрыты аспекты интерпретации образа интеллигента, связанные с мировоззрением и социальными взглядами автора.

Ключевые слова: *общественно-политическая борьба, литература и идеология, советская литература, социальное мышление, образ интеллигента.*

Ijtimoiy hayotdagi har bir yangilik, har bir islohot ana shu jamiyatning ma’naviy tafakkurida o‘z aksini topadi. O‘tgan asrning 20-yillarida ro‘y bergan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohadagi o‘zgarishlar davr ziyolilarining diqqat markazida bo‘ldi va ularning voqelikka turli xil yondashuviga zamin yaratdi. Oktyabr to‘ntarishidan keyin bolsheviklarning hukumatni qo‘lga olishi boshqa mustamlaka xalqlar qatori Turkiston xalqlarida ham yangidan umid uyg‘otdi. Lekin xalqning ilg‘or fikrli ziyolilari bolsheviklarning g‘alabasi ham yurtga haqiqiy ozodlik bermasligini tez fursatda tushunib yetdilar.

O‘sha davr mafkurasi ta’sirida 20-yillardan boshlab adabiyotda mavjud voqelikni biryoqlama – tarafkashlik asosida tasvirlashga qaratilgan holatlar yuzaga keldi. Ayniqsa, yangi adabiy-estetik prinsiplarni sovet yozuvchilari tomonidan yanada yaxshiroq o‘zlashtirishda, proletar adabiyotining chinakam g‘alabasini ta’minlashda NEP (yangi iqtisodiy siyosat) [1]ning ta’siri hamda Markaziy Komitetning 1925-yil 18-iyundagi “Partiyaning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati to‘g‘risida” chiqargan qarori juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Unda ziddiyatlar kuchaygan bir sharoitda proletar adabiyotini qo‘llab-quvvatlash, proletar yozuvchilari siymosida sovet adabiyotining kelajagi – g‘oyaviy rahbarligini ko‘rish ta’kidlangan edi. Ushbu qarorda “Adabiyotning bosh masalasi bo‘lgan yangi inson obrazini yaratishga intilish, markscha-lenincha dunyoqarashning birligi... o‘zbek adabiyotining ham mazmunan sotsialistik, shaklan milliy adabiyotlardan biri bo‘lishiga asos bo‘ldi” [2. B. 13] deyiladi. Shunga binoan yaratilayotgan adabiy asarlarning markazida davr ruhi bilan hamnafas, yangi g‘oyalar targ‘iboti va da’vatiga “labbay” deb javob beradigan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol, sho‘ro hukumatining ko‘rsatmalarini qo‘llab-quvvatlaydigan “*yangi inson*”lar obrazi tasvirlandi.

“Partiyaning nafis adabiyot sohasidagi siyosati to‘g‘risida”gi maxsus rezolyutsiyasida “...biz madaniy inqilob davriga kirdik, bu madaniy inqilob davri kommunizm jamiyati tomon yana qadam bosib borishga imkon beradigan shartdir. Yangi adabiyotning o‘sishi, ya’ni avvalo proletariyat va dehqonlar adabiyotining... o‘sishi, hammasi omma ichidagi ana shu madaniy o‘sishning bir qismidir” [3. B. 99–100] deyiladi. Shuningdek, o‘n olti banddan iborat bo‘lgan mazkur rezolyutsiyada eski va yangi ziyolilarning yangi burjuaziyaga, albatta, moyillik ko‘rsatishi, jamiyat ichidan bu burjuaziyaning yangi mafkurachilari paydo bo‘lishi, xullas, bu hollarning barchasi ijtimoiy hayotning adabiyot yuzida aks etib ko‘rinishi muqarrarligi ta’kidlanadi. Jamiyatda sinfiy kurash to‘xtamaganidek, adabiyot maydonida ham to‘xtamasligi, sinfiy jamiyatda betaraf san’at yo‘q va bo‘lishi mumkin ham emasligi uqtirib o‘tiladi. Shu tariqa rahbar partiyaning nafis adabiyot sohasidagi siyosati proletar yozuvchilar bilan boshqa xil yozuvchilar o‘rtasidagi munosabatni, adabiy tanqid, badiiy asarlarning uslu-

bi va shakli masalalarini ham o‘z nazoratiga oldi. Proletar yozuvchilarining gegemon bo‘lishlarida va tarixda o‘zlariga haq va huquq olishlarida partiya doimiy yordam berishi, ularning kelgusida sovet adabiyotining g‘oyaviy rahbarlari bo‘lishi alohida ta’kidlandi. “Partiya qo‘lidagi tarbiya qurollarining muhimlaridan biri bo‘lgan tanqid” [3. B. 102]ning vazifalari ham sinfiylik nuqtayi nazaridan belgilandi, ya’ni kommunistik mafkuraga zid bo‘lgan, uning g‘oyalarini tarannum etmagan, aksilinqilobchilik kayfiyatidagi yozuvchilarga qarshi kurashish, ularga nisbatan keskin choralar ko‘rish va “qattiq zarba berish” kerakligi ko‘rsatib o‘tildi. Umuman, “adabiyot xoslar ishi degan taassubni qat’iy ravishda uloqtirib tashlab”, million-million omma tushunadigan yangi shakldagi ishchi va dehqonlar adabiyotini yaratish barcha ijodkorlar zimmasiga tarixiy madaniy vazifa etib yuklatildi.

Shu tariqa 20-yillar o‘rtalaridan adabiyotda mafkurabozlik avj olib ketdi. Buning natijasida adabiyotdan sinfiy dushman qidirish tanqid prinsipida asosiy mezonga aylandi. Masalan, Abdurahmon Sa’diy “Olti yil ichida o‘zbek she’riy adabiyoti” maqolasida qo‘lida qalam qimirlagan kishidan “inqilobiy va sinfiy ruh”ni talab qildi. Yozuvchilarni “o‘ng-so‘l”, “ishchi-dehqon”, “yo‘lovchi-to‘xtovchi”, “mafkurasi buzuq”, “mafkurasi tuzuk”, “bizniki-sizniki”ga ajratishda, sinfiy dushman ro‘yxatini ko‘paytirishda kimo‘zarchilik musobaqasi boshlandi. Haqiqiy millatparvar ijodkorlar siyosiy ta’qibga uchradi, millatchilikda ayblandi. Olim Sharafiddinov (“Ayn”)ning “O‘zbek shoirlari. Cho‘lpon” (1927), Usmonxon Eshonxo‘jayevning “Munaqqidning munaqqidi” (1927), Mahmud Hodiyev (Botu) ning “Qizil madaniyatchilar g‘alabasi” (1927), Mixail Sheverdinning “Birinchi o‘zbek romani” (1928), J.Boybo‘latovning “O‘zbek adabiyoti va chig‘atoychilik” (1928), Otajon Hoshimovning “Jadid adabiyoti to‘g‘risida” (1929) kabi ko‘plab tanqidiy maqolalarida bu davr ijodkorlari va ularning asarlariga nisbatan sinfiy nuqtayi nazardan yondashildi, siyosiy, g‘oyaviy xato va kamchiliklar qidirilib, turli ayblovlar qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Bu haqda adabiyotshunos B.Karimov shunday yozadi: “Asarni jiddiy tahrir etishga chanqoqlik, yozuvchining dunyoqarashi bilan hisoblashmaslik, so‘z san’atining nozik va nafis spetsifikasini nazar-pisand qilmaslik, har qanday adabiy voqelikka firqaning siyosiy-mafkuraviy pozitsiyasidan biryoqlama yondashish, o‘zgani xatokor, o‘zni mutloq haqgo‘y deya tasavvur etib, boshqalarga yo‘l ko‘rsatish va aql o‘rgatishga ishtiyoqmandlik – bularning barcha-barchasi vulgar sotsiologik tahlilga xos xususiyatlar edi” [4. B. 19]. Jamiyatda esa yangi tuzumni olqishlaydigan, “millionlar baxtini kuylaydigan”, “unganman qip-qizil lola qo‘ynida” deya inqilob nashidasi bilan yashaydigan ijodkorlar shakllana boshladi. Aslida, hayot tamomila boshqacha tus olgandi. Adabiyotdagi ideallar bilan sho‘ro voqeligi o‘rtasida keskin nomuvofiqlik, ziddiyatlar borgan sari kuchayib bormoqda edi. Jamiyatda ijtimoiy sinflarning, shuningdek, ijod ahlining har xil dunyoqarashga ega ekanligi adabiyotda ham turli xil uslub, ohanglarni keltirib chiqardi.

20-yillardagi sinfiy kurashlar natijasida asta-sekin o‘zbek yozuvchilarining asarlarida ham sovet hokimiyati davrida partiya tomonidan mehr bilan tarbiyalab yetishtirilgan “yangi odamlar” obrazini yaratish, ularning ichki dunyosini, ijtimoiy voqelikka munosabatini kengroq yoritish boshlandi. Masalan, M.Shermuhammedovning “Kommunizm chechaklari”, “Bugun bayram edi” (“Har yerda g‘avg‘o!”), “Turmush ko‘rinishlari”, Sh.Sulaymonning “Yangi qishloq”, “O‘ch”, “Yangi xo‘jayinlar”, Fattoh Rahmonning “Yangi turmushda”, “Yangi domla”, Mahbuba Rahim qizining “Qorong‘uliqdan yorug‘liqqa”, “Halima komsomolka”, Julqunboyning “Tinch ish”, Kavkabning “Baxtsiz Erkinoy”, Muborak Yunusovaning “Tuyg‘unoy”, Elbekning “Qo‘shchi Turg‘un”, Zarif Bashirning “Erk yo‘lida”, G‘ayratiyning “Qutulish” hikoyalarida Oktyabr inqilobi va fuqarolar urushi qahramonlarini ulug‘lash, yer-suv islohoti, xotin-qizlar ozodligi uchun kurash, o‘zbek mehnatkashlarining o‘tmishdagi og‘ir turmushi, sho‘ro hukumati davrida esa erkin va baxtli hayotga yetishganligini ko‘rsatish asosiy maqsadga aylangani davr ziyolilari bo‘lmish adiblarning ham g‘oyaviy pozitsiyasini belgilaydi.

G‘ayratiyning 20-yillarda yozgan bir qator hikoyalari badiiy jihatdan anchagina bo‘sh, talab darajasida bo‘lmasa ham, g‘oyaviy jihatdan yaxshi baholanib, qo‘llab-quvvatlandi. Jumladan, adibning “Qora yuraklar” to‘plamidagi “Rahbaroyning aldanishi” hikoyasida xotin-qizlar ozodligi va inqilobdan keyingi yoshlar hayoti tasvirlanadi. Hikoyada Rahbaroy, Akram va Sobirjon obrazlari orqali yetishib kelayotgan yosh sovet ziyolilari ko‘rsatilgan. Rahbaroy G‘ulom degan o‘qimishli, biroq dunyoqarashi va xulq-atvori eskicha bo‘lgan yigitning tuzog‘iga ilinib, o‘qishdan va jamoatchilik ishlaridan ajralib qoladi. Lekin bu holat shundayligicha qolmaydi. Rahbaroy yana o‘zining safdoshlari qatoriga qo‘shiladi, G‘ulom esa Sovet organlari tomonidan javobgarlikka tortiladi. G‘ayratiy yangi zamon talablariga mos yangi qahramonlar obrazi orqali eskicha diniy qarashlar bilan yangicha, ya’ni sho‘rolarga xos g‘oyaviy kuchlarning kurashini sinfiy jihatdan yoritishga harakat qilgan.

Mirmulla Shermuhammedovning “Bu kun bayram edi” hikoyasi ham juda sodda uslubda yozilgan. Asarda boylarning qo‘lida og‘ir mehnat qilib, ayoli, uch o‘g‘il va bir qizini boqishga qiynalgan, kasalmand Oxunjon hayoti berilgan. Muallif, o‘zi ishonganidek,

Rusiyadagi inqilobning hamma joylarda yangidan istiqbol umidlarini uyg‘otayotganiga urg‘u beradi. Oxunjon ham ana shu yangi kuch – ishchilar safiga qo‘shilib, yangi hayot uchun kurashga otlanadi. Muallif endi Oxunjonning hayotida katta o‘zgarishlar bo‘lishiga ishora qiladi. Tongda yosh kommunistlar firqasi komiteti raisligiga saylangan o‘g‘li Yusuf otasini tabriklaydi: “Otajon, bu kun bayram. Sizni tabrik qilaman. O‘zim esa hozir yig‘inga boraman”. Hikoya so‘ngidagi bu holat muallifning muddaosini ifodalaydi, ya’ni ijodkor o‘z idealidagi yangi qahramonni ko‘rsatish orqali davr ijtimoiy-siyosiy jarayonidagi o‘zgarishlarga ijobiy munosabatini bildiradi [5].

Shuningdek, M.Shermuhammedovning “Kommunizm chechaklari” hikoyasida ham shunga o‘xshash holatni ko‘ramiz. Asarda eski, ya’ni oktyabr inqilobidan oldingi hamda yangi, ya’ni inqilobdan keyingi hayot muqoyasa qilingan. Hikoyada otasining vafotidan keyin “ishchilar hukumatining soyasida, hukumat maktabida” yaxshigina ta’lim-tarbiya olgan yosh Alijon shunday deydi: “Onajon, bugun zo‘r bayram. Rusiyada yashag‘uvchi ayrim yo‘qsullarning tarixiy bayramlari. Bugun asrlardan beri yo‘qsullar yelkasida og‘ir yuk bo‘lib yotqon ularning yumushlarin o‘z qo‘llarida xoinona suvratda hal qilmoqg‘a tirishgan boylar, to‘ralar, podshohlarning mahkam mavqelarin ishchilar g‘alabasi bilan bo‘shatib, jahannamga ketgan kunlari. Bugun insoniyat dunyosining ko‘p qismini tashkil qilgan ezilgan yo‘qsullarning to‘rt yillik tarixiy bayramlari” [6]. Muallif hikoya bayonida Sharq dunyosining ma’rifatdan chetda yashashiga sabab bo‘lgan eski turmushni qoralaydi, sho‘rolar olib borayotgan “adolatli” siyosatni oqlaydi va o‘zining voqelikka bo‘lgan munosabatida “yangi inson”lar tarafida ekanligini “yangi hayotga kirgan zo‘r shodliq kunlarimizdir” deya bildiradi. Yosh avlodning esa Turkistondagi xurofiy e’tiqodlarni butunlay yo‘q qilishga otlangan yangi kuch, “Alijonlar, Rahimalar “kommunizm” boqchasining yangidan ochqon chechaklari” ekanligini ta’kidlaydi.

Shokir Sulaymon hikoyalarida eski va o‘zgarayotgan yangi turmush lavhalari tasvirlanadi. Unda yangi maktablarning ochilishi va yerlik xalqni savodli qilish, boylarning yerini kambag‘allarga bo‘lib berish, mushtumzo‘r “quloqlar”ga qarshi kurash, bu borada yangi sho‘rolar firqasining “adolatli” siyosati haqida gap boradi. Hikoyalarda davr yangiliklarini, yangi mafkurani qo‘llab-quvvatlash kabi tashviqiy munosabat yaqqol sezilib turadi. Fattoh Rahmonning “Yangi turmushda” asarida esa inqilobdan oldin og‘ir hayot kechirgan Toshtemirning kommunistlar firqasi yordamida savodli bo‘lgani, xotini ham “paranjisini kuydirib”, “yangi ongli xotinlar kabi klubda ishlashi”, o‘g‘illarining biri komsomol, yana biri kashshof bo‘lgani, umuman, faqat Oktyabrgina ularga najot yo‘lini ko‘rsatganligi hikoya qilinadi. Hikoya so‘ngida Toshtemirning xotiniga aytgan quyidagi so‘zlari muallif munosabatini aniqroq ko‘rsatadi: “Biz ham endi dunyoda baxtli yashar ekanmiz-a? Eski kunlarimizni qara-yu, hozirgi kunimizni ko‘r! Lenin bobo-ning boshidan suv o‘girib ichsang arziydi, xotin!” [7]

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu davrda yaratilgan aksariyat badiiy nasr namunalarida hukmron mafkuraning bevosita ta’sirini kuzatamiz. Ayniqsa, ijtimoiy tafakkuri yangi g‘oyalarga ishonch ruhi bilan shakllanayotgan davr ziyolilari, jumladan, ijodkorlar o‘z asarlarida ana shunday qahramonlarni tasvirlash va bu bilan o‘zlarining maqsad-muddaolarini ifodalashga harakat qildilar. Afsuski, bunday sinfiy jihatdan yondashuvlar adabiyotimizni biryoqlama, badiiylikdan yiroq, g‘oyaviy nomukammal asarlar bilan “boyishi”ga olib keldi. Natijada adabiyotda shakllanayotgan sho‘ro mafkurasi g‘oyalarini tasdiqlovchi va targ‘ib etuvchi “yangi tipdagi ziyoli qahramonlar” asosiy tasvir obyektiga aylandi.

Demak, bu davrdagi aksariyat asarlardagi qahramonlar qiynalgan mehnatkashlar va oktyabr revolyutsiyasidan keyin “ro‘shnolik”ka chiqqan oddiy xalq vakillaridan iborat edi. Bu asarlarda asosan g‘oyaviy yo‘naltirilgan sxematik obrazlar va ularning ijobiy yutuqlari ko‘rsatilgan. Ijodkorlar ham mavjud muammoga faqat biryoqlama – sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashganligini, yangi hukmron mafkuraga ishonch bilan qaraganligini ko‘rish mumkin.

20-yillar adabiyotida mafkura manfaatlaridan ustun turuvchi, milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan badiiy asarlar ham yaratildi. Bu davr adabiyotining asosiy yutuqlari sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”. “Mehrobdan chayon”, Sadriddin Ayniyning “Buxoro jallodlari”, Fitratning “Qiyomat”, “Hind ixtilolchilari”, “Abulfayzxon”, Cho‘lponning “Oydin kechalarda”, “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz”, “Yorqinoy”, Hamzaning “Burungi saylovlar”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlari”, G‘ulom Zafariyning “Halima”, “Baxtsiz shogird”, Avloniyning “Ikki muhabbat”, “Portugaliya inqilobi” kabi asarlarini keltirish mumkin. Jadid ijodkorlarining asarlari bilan yangi o‘zbek adabiyotida yangi janrlar, yangi shakllar va obrazlar ommalashdi, til va uslub imkoniyatlari kengaya bordi.

Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari o‘tgan asrning 20-yillar adabiyotidagi eng muhim hodisa sifatida e’tirof etildi. Asardagi Yusufbek hoji, Otabek obrazlarini millat uchun qayg‘uradigan haqiqiy ziyoli, vatanparvar inson sifatida ko‘ramiz. Chunki ularning har ikkisida ham diniy va dunyoviy bilimlar yetarli, qolaversa, atrofdagi voqea-hodisalarga befarq emas, har bir

holatni ziyrak nigoh bilan kuzatadi va xolisona baholaydi. Eng asosiysi, bu qahramonlar yuqoridagi “yangi inson”lardan tamomila farqlanadi, ya’ni ular muallif idealiga muvofiq qahramonlar sifatida ijtimoiy tengsizlikka murosasiz, mustamlaka va jaholat ichidagi millat taqdiri uchun kuyunib yashaydi. Aslida, muallif o‘zida kechayotgan ijtimoiy-ruhiy holatlarni aynan asar qahramonlari orqali ifodalaydi. Ko‘pincha “O‘tkan kunlar”dagi Otabekni Qodiriyning o‘ziga qiyos qiladilar. Masalan, Ziyo shohichining uyidagi suhbatda Otabek muallif idealiga muvofiq ziyoli shaxs sifatida gavdalantiriladi. Mazkur epizodda Otabekning quyidagi fikrlari beriladi: “Shamayga bormasimdan ilgari o‘z hukmdorlig‘imizni ko‘rib; boshqalar ham shundaydir deb o‘ylar edim, – dedi bek, – lekin Shamay manim fikrimni ost-ust qilib, butunlay boshqa kishi yasadi. Men o‘risning idora ishlarini ko‘rib, o‘z idoramizning xuddi bir o‘yinchoq bo‘lg‘anlig‘ini iqror etishka majbur bo‘ldim... Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa, holimizning nima bo‘lishig‘a aqlim yetmay qoldi” [8. B. 17]. Otabek o‘sha onda “qanotim bo‘lsa, vatanga uchsam”, lekin “mozoristonda “hayyya alalfalah” xitobini kim ham eshitar edi” deya iztirob chekadi. Muallif ham shu o‘rinda Otabek orqali mavjud holatga o‘z munosabatini oshkor qiladi: “Majlis Otabekning Shamay taassurotini maroq bilan eshitkan, shu kungacha hech kimdan eshitilmagan uning fikrlariga ajablangan edi. Istiqbol qayg‘usi tushiga ham kirmagan bu Turkiston otalari Otabekning daruni dildan chiqarib aytkan gaplaridan hissasiz qolmadilar” [8. B. 17]. Fikrimizcha, bu o‘rinda muallif o‘zining g‘oyaviy maqsadi talabi bilan Otabek tilidan millat tanazzulining asosiy sabablarini birma-bir sanab o‘tadi va o‘z xulosasini aytadi: “Modomiki, o‘z g‘arazi yo‘lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo‘lg‘unchilar yo‘qotilmas ekanlar, bizga najot yo‘qdir, magar shunday g‘arazchilarni ular kim bo‘lsalar ham ish boshidan quvlash va ular o‘rniga yaxshi va xolis odamlarni o‘tquzish najotimizning yagona yo‘lidir” [8. B. 18]. Asarda personajlarning xarakter mantig‘iga muvofiq harakatlanishi, jamiyatda alohida shaxs sifatida muhim o‘rin egallashi (atrofdagilarga ta’sir etadigan va ularni boshqara oladigan bo‘lishi), ya’ni millat ziyolisi sifatida gavdalanishi Abdulla Qodiriyning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga monand ekani kuzatiladi.

Romanning “Musulmonqul istibdodiga xotima” bobida Yusufbek hoji “o‘z manfaatini olding‘a surg‘uchi cho‘talchi beklarga qarshi” yurt va el manfaati uchun qayg‘urib, ularni ahillikka, birdamlikka undaydi. O‘sha davrning siyosiy hushyor odami, har tomonlama o‘ylab, mulohaza qiladigan ziyoli kishi sifatida beklarni ogohlikka chaqiradi. Keyingi o‘rinlarda muallif o‘z fikrini yana ham kuchliroq ifodalashga harakat qiladi, ya’ni obrazlar tili bilan o‘zining asl muddaosini ochiqlaydi. Romanning “Qipchoqqa qirg‘in” bobida Yusufbek hoji Otabek bilan suhbatda shunday deydi: “Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq yaqindirki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsaq o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz” [8. B. 303]. Shuni alohida aytish mumkinki, bir umr istiqlol dardi bilan yongan adib o‘z qahramonlari vositasida davrning ijtimoiy qiyofasini, millatning “ulkan dardi”ni ifodalagan. Yusufbek hoji va Otabek obrazlari chin ma’noda ziyoli shaxs sifatida roman problematikasini ochib berish va muallifning badiiy maqsadini ifodalashga xizmat qilgan.

20-yillar Cho‘lpon ijodida ham o‘ziga xos yangilanish davri bo‘ldi. Kechagina inqilobni muborakbod etib, undan katta umidlar kutgan jadidlar qatori Cho‘lponning ham sho‘rolarga nisbatan ishonchi yo‘qoldi. Chunki bolsheviklar Turkiston xalqiga milliy ozodlik va’da qilgan edi, biroq amaldagi siyosat tamomila uning ziddi bo‘ldi. Milliy ozodlikka erishish yo‘lidagi harakatlar qon to‘kish, yurtni vayronaga aylantirish, millatni parokanda qilish bilan bostirildi. O‘zlarini haqiqiy millat farzandi deb bilgan o‘zbek ziyolilari turli shakllarda noroziliklarni bildirdilar. Cho‘lpon ham ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlikka qarshi milliy ozodlik ruhidagi asarlari bilan o‘zini qiynayotgan muammolarga javob izlay boshladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov Cho‘lponning o‘sha davrdagi adabiy faoliyati haqida shunday yozadi: “Bunday davrlarda yashagan ijodkorlar uchun shaxsiylik va ijtimoiylik chegaralari mavjud emasdek, ularning qalbi jamiyat hayotiga hamohang urayotgandek. Cho‘lpon ham ayni shu xil ijodkorlardan edi: u esini tanibdiki, o‘zini ijtimoiy hayotning dolg‘ali to‘lqinlariga otdi, uning qozonida obdon qaynadi. Yosh millatparvarning ijtimoiy hayotni isloh qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, avvalo, uning o‘zini o‘zgartirdi: fikr-tuyg‘ularini charxladi, olamu odam haqidagi tasavvurlarini boyitdi, dunyoqarashida sezilarli burilishlar yasadi. Tabiiyki, bu narsa adibning ijodida ham aks etmay qolmadi, eng muhimi, ijodiy o‘zgarishlar hayotdagidek shiddatli kechdi. Bu o‘zgarishlar ichida eng muhimi, shubhasiz, Cho‘lpon nasrida hayotni badiiy aks ettirish prinsiplarining tadrijidir” [9. B. 15].

Cho‘lponning bu davrda yaratilgan “Kleo‘patra”, “Novvoy qiz”, “Qor qo‘ynida lola”, “Taraqqiy”, “Vayronalar orasidan” kabi asarlari zamirida mumtamlaka zulmiga qarshi ichki isyon borligini ko‘ramiz. Uning “Taraqqiy” hikoyasida jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarning yoshlarga ta’siri roviy-personaj nigohi orqali beriladi. Unda Ilhom, Salohiddin kabi yoshlarning jamiyatda ommalashib borayotgan rus madani-

yati ta'siriga tushishi, milliy qadriyatlarga munosabatning buzilishi, bu esa millat taraqqiysiga to'sqinlik qilishi o'ziga xos kinoyaviy uslubda ifodalangan. Hikoya qahramonlarining fe'l-atvori ularning dialoglarida namoyon bo'lgan. Avvaliga yoshlar kechki sayr uchun kartina (tomosha)ga yoki sirkka borish haqida gaplashadilar. Nihoyat Ilhom tashabbusni o'z qo'liga oladi:

"*– Nu, o'rtoqlar, voprosni men reshil! – dedi.*

Biz so'radik:

– Xo'sh, qandog'?

– Samiy yaxshi maslahat: shul yerga boramiz – gorodskoy sadga, ov qilamiz, ov!

Saloh menga qarab xohlar-xohlamas:

– Yo'q-ey, yaxshi emas, – dedi.

Ish bu darajaga yetib, har kimning fikri bilinganidan keyin men ham tilagimni ochib aytdim:

– So'fi boboning oldig'a kiramiz. "O'rus keldi"da bo'lg'an gaplardan, o'shal vaqtdag'i xonlarning, beklarning qilg'an ishlaridan gapirib beradi, eshitib chiqamiz. So'fi bobo Qo'qon xonlari bilan Buxoro amirlari orasidag'i behuda g'alvalarni juda yaxshi biladi, bir eshitar edik, – dedim...

Bu so'zimga ikkalasi ham barobar e'tiroz qildilar:

– Shuning bilan taraqqiy qilib bo'ladimi?"

[10. Б. 353.]

Shu tariqa yigitlar bog'da rus qizlariga xushomad qilib, ular bilan qo'ltiqlashib, kulishib yuradilar, bu holatga ko'nika olmagan do'stlari (hikoyachi-personaj) ning taraqqiy etmaganligini aytib, kinoya qiladilar. Cho'lpon "taraqqiy" masalasiga bu xil qarashdagi personajlar tasviri orqali o'sha davrda Turkiston hayotida kechayotgan jarayonlarni tanqidiy nazar bilan ko'rsatib beradi. Ya'ni yoshlarning ma'naviy inqirozi ertangi kun istiqboli uchun juda katta yo'qotish ekanligini anglatmoqchi bo'ladi. Bu holatlarga sabab bo'lgan avvalgi va hozirgi omillarning mohiyatini tushunishga, ya'ni endilikda to'g'ri yo'ldan adashmaslik kerakligiga ishora qiladi.

Umuman, XX asrning o'ziga xos "o'tish davri" bo'lgan murakkab siyosiy va tahlikali 20-yillarida o'zbek adabiyoti sinovli jarayonni bosib o'tdi. G'oyaviy kurashlar, o'zaro ichki va tashqi ijtimoiy omillar ta'sirida ijodkorlar ham turli guruhlarga, badiiy adabiyot ham haqiqiy adabiyot bilan "erksiz", "nursiz" adabiyotga ajrala boshladi. Shu bilan birga, badiiy asarlarda ham eski va yangi, qadimchi va jadid, boy va kambag'al, ziyoli va johil, ishchi va dehqon, zolim va mazlum kabi turli qiyofa va xarakterdagi qahramonlar maydonga keldi. Shunga ko'ra, turli tipdagi ziyoli obrazlarining yaratilishi bu davr o'zbek nasrining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda, ijodkor badiiy maqsadini anglashda, asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. *Мусаев Ҳ.* Буюк октябр ўзгариши ҳам янги иқтисодий сиёсат // "Қизил байроқ" газетаси. –1921 йил 24 ноябрь.

2. *Ўзбек совет адабиёти тарихи*. I том. / Таҳрир ҳайъати: Ойбек, В.Й.Зоҳидов ва бошқ. – Тошкент: Фан, 1968. – 416 б.

3. *Адабиёт хрестоматияси*. / Тузувчилар: З.Мирхожиев, С.Долимов ва бошқ. – Тошкент: Ўздавнашр, 1949. – 408 б.

4. *Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур*. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 254 б.

5. *Шермуҳаммедов М.* Бу кун байрам эди // "Иштирокиюн" газетаси. –1920 йил 7 ноябрь.

6. *Шермуҳаммедов М*. Коммунизм чечаклари // "Қизил байроқ" газетаси. – 1921 йил 7 ноябрь.

7. *Фаттоҳ Раҳмон*. *Янги турмушда. Ёш куч*. / Тузувчи Ш.Сулаймон. – Самарқанд – Tashkent: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1929.

8. *Qodiriy A. O'tkan kunlar*. – Toshkent: Sharq, 2018. – 396 б.

9. *Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси*. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.

10. Чўлпон. *Асарлар*. Тўрт жилдлик. II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 374 б.

THE IMAGE OF THE INTELLECTUAL IN UZBEK PROSE OF THE 20s OF THE XX TH CENTURY

Begali Yu. Mo‘minov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 68-74.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: socio-political struggle, literature and ideology, modern and Soviet literature, artistic image, methodological research, the image of an intellectual and his types, the artistic goal of the creator.

The article describes the socio-political situation at the beginning of the 20th century, the specific aspekts of Uzbek literature of this period, ideological struggles and their influence on artistic reativiti, changes in the literari process, the issue of literary-political debates, the typology of the heroes of the literary work, thes image of the intellectual in litertanature and its artistic purpose issues such as importance are highlighted. The works of contemporary literature figures such as Abdulla Qadiri, Fitrat, Chulpan, M. Shermuhammedov, Ghairati, Sh.Sulaiman, F.Rahmon who had a significant impact on the development of our national literature, were analyzed. Despite such a difficult situation, changes began to take place gradually in the fields of press, education, and literature. New literary-aesthetic nfluence policy, Communist Party policy, the literature of the 1920s also developed unifying principles that encouraged the depiction of life on the basis of a very sharp bias. The main achievements of the literature of this period are Abdulla Qadiri`s “Ulokda”, “Jinlar bazmi”, “Otkan kunlar”, “Scorpion from the Altar”, “Executioners of Bukhara” by Sadriddin Aini, “Doomsday” by Fitrat, “Indian revolutionaries”, Abdulfayskhan”, “Cliopatra” by Chulpan, “Moonlight Nights”, “Lola in the snow”, Baker`s Girl”, “Yorqinoy”, “Old Elections” by Hamza, “Maysara`s Work”, “Secrets of buranji”, “Halima” by Ghulam Zafari, “Unfortunate Student”, “Two Loves” by Avloni, works such as “Portuguese Revolution” can be cited. With the works of modern artists new genres, new forms and images became popular in the new Uzbek literature. In partikular, Abdulla Qadiri`s novels “The Past Days”, “The Scorpion from the Altar” wich made a significant contribution to the development of our national prose, were recognized as the greatest phenomenon in the literature of the 20s of the last century. The novel “The Past Days” gained great social and spiritual significance not only for the Uzbek people, but also for the brotherly ctnations. Almost all the characters in the work left a great impression on the readers as if they were real people. It is no exaggeration to say intellectual who cares for the nation.

In general, in the complex political and dangerous 20s of the 20th century which was a unique “transition period”, Uzbek literature went through a testing process. Under the influence of ideological struggles, mutual internal and external social factors, creators were divided into different groups, real literature and “involuntari, lightless” literature.

In general, Uzbek literature went through a testing process in the complex political and dangerous 20s, which was a special “transition period” of the 20th century. Under the influence of ideological struggles, mutual internal and external social factors, creators began to divide into different groups, and fiction and real literature began to divide into “willless, lightless” literature. At the same time, characters of various shapes and characters such as old and new, ancient and modern, rich and poor, intelligent and ignorant, worker and peasant, oppressor and oppressed appeared in the works of art. In particular, the creation of different types of images of intellectuals is of great importance in studying the specific features of Uzbek prose of this period, in understanding the artistic goal of the creator, and in understanding the ideological direction of the work.

References:

1. Musayev, H. (1921) Buyuk oktyabr o‘zgarishi ham yangi iiqtisodiy siyosat [Great October change is also a new economic policy]. *Qizil bayroq*. November 24.

2. Oybek, M.T., Zohidov, V.Y., Yoqubov, H.Y. (et.al.) (1968) *O‘zbek sovet adabiyoti tarixi* [History of Uzbek Soviet literature]. Vol.I. Tashkent: Fan.

3. Mirxojiyev, Z., Dolimov, S. (et.al.) (1949) Adabiyot xrestomatiyasi [Literary chrestomathy]. Tashkent: O‘zdavnashr.

4. Karimov, B. (2014.) Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur.[Abdulla Qadiri and hermeneutic thinking]. Tashkent: Akademnashr.

5. Shyermuhammedov, M. (1920) Bu kun bayram edi [Today was a holiday]. *Ishtirokiyun.* November 7.

6. Shyermuhammedov, M. (1921) Kommunizm chechaklari [Smallpox of Communism]. *Qizil bayroq.* November 7.

7. Fattoh Rahmon. (1929). Yangi turmushda [Newly married]. Yosh kuch. [Young power]. Samarkand – Tashkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.

8. Qodiriy, A. (2018.) *O‘tkan kunlar* [Past days]. Tashkent: Sharq. – 396 b.

9. Quronov, D. (2004.) *Cho‘lpon nasri poetikasi* [The poetics of Chulpan’s prose]. Tashkent: Sharq.

10. Chulpan. (2016.) Asarlar [Works]. Vol. II. Tashkent: Akademnashr.

Muallif haqida ma’lumot:

MO‘MINOV Begali Yunusovich – Andijon davlat universiteti, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: mominovbegali51@gmail.com